



HISTORY OF THE ACTIVITIES OF JOINT VENTURES IN NAVOI, SAMARKAND, AND BUKHARA REGIONS IN 2009–2011

Fazliddin Erkinovich Tuyev

Associate Professor

Bukhara State Pedagogical Institute

E-mail: fazli1820bek@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Navoi, Samarkand, and Bukhara regions, joint ventures, investment, projects, Free economic zones, oil and gas, US dollar, industry.

Received: 20.10.25

Accepted: 21.10.25

Published: 22.10.25

Abstract: 2009-2011 was a period of expansion of foreign investments and joint ventures in Uzbekistan. Factors such as state policy, free economic zones, and the import of technical expertise were aimed at creating a favorable environment for entrepreneurship. Navoi, Samarkand, and Bukhara regions also had opportunities for joint ventures due to local resources, geographical location, transport communications, investment contracts, and projects.

2009-2011 YILLARDA NAVOIY, SAMARQAND VA BUXORO VILOYATLARDAGI QO'SHMA KORXONALAR FAOLIYATI TARIXI

Fazliddin Erkinovich Tuyev

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

E-mail: fazli1820bek@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlarida, qo'shma korxonalar, investitsiya, loyihalar, Erkin iqtisodiy zonalar, neft-gaz, AQSh dollari, sanoat.

Annotatsiya: 2009-2011 yillar O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar va qo'shma korxonalarni kengaytirish davri bo'ldi. Davlat siyosati, erkin iqtisodiy zonalar, texnik tajribani olib kirish kabi omillar tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratishga qaratildi. Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlarida ham mahalliy resurslar, geografik joylashuv, transport kommunikatsiyalar, investitsion shartnoma va loyihalar hisobidan qo'shma korxonalar uchun imkoniyatlar

ИСТОРИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОВМЕСТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В НАВОЙСКОЙ, САМАРКАНДСКОЙ И БУХАРСКОЙ ОБЛАСТЯХ В 2009–2011 ГОДАХ

Фазлиддин Эркинович Туев

Доцент Бухарского государственного педагогического института

E-mail: fazli1820bek@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Навоийская, Самаркандская и Бухарская области, совместные предприятия, инвестиции, проекты, свободные экономические зоны, нефть и газ, доллар США, промышленность.

Аннотация: 2009–2011 годы стали периодом расширения иностранных инвестиций и совместных предприятий в Узбекистане. Такие факторы, как государственная политика, свободные экономические зоны и импорт технических знаний, были направлены на создание благоприятной среды для предпринимательства. Навоийская, Самаркандская и Бухарская области также имели возможности для создания совместных предприятий благодаря местным ресурсам, географическому положению, транспортным коммуникациям, инвестиционным контрактам и проектам.

Kirish. 2009–2011 yillar O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida qo'shma korxonalar va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga katta e'tibor qaratilgan davr bo'ldi. Bu yillarda mamlakatdagi strategik hududlar — Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlari sanoat salohiyati, resurslar, transport kommunikatsiyalari va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari bilan ajralib turgan. Navoiy viloyatida og'ir sanoat, Samarqandda to'qimachilik va qayta ishlash sanoati, Buxoroda esa neft-gaz va yengil sanoat yo'nalishlari rivojlandi. Shuningdek, "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasining tashkil etilishi mamlakatdagi sanoatlashuv jarayoniga yangi bosqich sifatida xizmat qildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi va metodologiya: 2009-2011 yillarda Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlardagi qo'shma korxonalar faoliyati tarixiga bag'ishlab yozilgan ishlarga bir qator iqtisodchi olimlardan B.Kazbekov, N.U.Arabov, N.E.Ibodullaev, Yu.Iskandarova, Z.O.Raximov va boshqalarning kitoblarini kiritish mumkin. Milliy va mahalliy davlat arxivi materiallari, davriy matbuot hamda ilmiy-ommabop nashrlardan foydalangan holda, tanlangan muammo mohiyatini ochib beradi. Zarafshon vohasidagi tabiiy imkoniyatlarning tashqi aloqalarga kiritilishini o'rganish jarayonida iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiyalash,

induksiya, deduksiya, dinamikada o'rganish, qiyosiy tahlil, oddiydan murakkabga, noaniqlikdan aniqlik tomon kabi va boshqa usullardan foydalanildi.

Muhokama va natijalar: Har bir viloyatning o'ziga xos sanoat sohasidagi rivojlanishlari mavjud. Navoiy viloyati og'ir sanoada respublikaning eng rivojlangan hududlaridan biri bo'lib, 2009-yil mashinasozlik, metallurgiya, kimyo va boshqa sanoa korxonalarida muhim yutuqlarga erishgandi. Ayniqsa, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining faoliyati sezilarli bo'lib, undan oltin, uran va boshqa qimmatbaho metallar ishlab chiqarish davom etgan[1]. Viloyatdagi sanoat tarmoqlari, shu jumladan kimyo, qurilish materiallari va energiya ishlab chiqarish sohalari ham o'sgan[2]. Buxoro viloyatida esa neft-gaz sanoati va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalari, neft-gaz konlarini rivojlantirish va qayta ishlash zavodlarini modernizatsiya qilish dasturlari amalga oshirildi. Yengil va oziq-ovqat sanoatlarining rivojlanishi ham yuqori bo'lgan. Yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratilib, eksportni oshirishga qaratilgan ishlar olib borilgan[3].

Samarqand viloyatidagi sanoat sohasida, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va tekstil sanoatida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Viloyatda paxtani qayta ishlash va to'qimachilik sanoatini rivojlantirish borasida katta qadamlar qo'yilgan. 2009-yilda yangi to'qimachilik fabrikalarining tashkil etilishi Samarqand viloyatining sanoat salohiyatini oshirishga yordam bergandi[4]. Shu bilan birga, Zarafshon vohasida turizm va qurilish sanoatlari rivojlanishi uchun zamin yaratdi. Tarixiy ahamiyatini hisobga olgan holda, turizmga oid sanoat tarmoqlarida ham ijobiy o'sish kuzatildi. Umuman olganda, 2009-yilda viloyatlarda deputatlarning kamchiliklariga qaramasdan, tashqi aloqalarning rivojlanishi Zarafshon vohasida sanoat sohasida bir qancha investitsion shartnoma va loyihalar tufayli sezilarli yutuqlar amalga oshirilgan. Bu yutuqlar asosan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi orqali erishilgan.

Investitsion shartnoma va loyihalar tufayli viloyatlar tarixan qisqa vaqt ichida Respublikadagi yirik sanoatlashgan mintaqaga aylandi. Jumladan, mamlakat iqtisodiyotining faxri bo'lgan "Navoiy tog'-kon metallurgiya" kombinati, Navoiy GRESi, "Zarafshon-Nyumont" o'zbek-amerika qo'shma korxonasi, "Navoiyazot" va "Qizilqumsement" birlashmalari, "Elektroximzavod" ko'shma korxonasi[5], Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Gazli neft-gaz majmuasi, "Qandim" gazni qayta ishlash kompleksini, "Dzu tekstil Buxoro", "Knauf gips Buxoro" kabi yirik korxonalar bunyod etilgan[6]. Samarqandda "Liftsozlik" zavodi, "Sino" AJ, Samarqand "Kimyo" zavodi, "Asl-Nafis" aksiyadorlik jamiyati, "Choy qadoqlash" fabrikasi, "8-Mart" MChJ, "SamAvto", "Sam-Anten-Gilam", "JV MAN AUTO UZBEKISTON"

O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasi[7] kabi yirik ishlab chiqarish quvvatlari nafaqat viloyatlar, balki butun mamlakatimiz sanoatining faxri sanaladi.

Ma'lumki, erkin industrial-iqtisodiy zona O'zbekistonda birinchi bo'lib Navoiy viloyatida tashkil etilda. 2008-yil 2-dekabrda "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil qilish to'g'risida"gi Oliy 19-Farmoniga asosan, "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonaning faoliyat ko'rsatish muddati 30 yilni tashkil etgan va bu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkin. "Navoiy" EIIZda ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ularga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmiga qarab qator soliq imtiyozlariga ega bo'lgan[8]. Shuni qayd etish lozimki, hozirgi vaqtda mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar 1995-yil 25-aprelda qabul qilingan "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solingan[9].

"Navoiy" EIIZsida "O'zbek-neftgaz" milliy xolding kompaniyasi hamda Janubiy Koreyaning "Kogas", "Kolon" va "NK co Ltd" kompaniyalari bilan hamkorlikda "Ko-Ung Cylinder" qo'shma korxonasi ishga tushirilib, yiliga 120 ming dona yuqori bosimli metan gaz ballonlari ishlab chiqarilgandi, qiymati 13,6 million AQSh dollariga teng zamonaviy texnologik uskunalar Janubiy Koreyadan keltirilgan bo'lib, ular to'liq kompyuterlashtirilgan[10]. Malik cho'lining yaydoq bir bo'lagi ulkan bunyodkorlik maydoniga aylandi. 2009-yilda 12 ta korxona, 2013-yil esa Navoiy viloyati hududida dunyoning 22 mamlakati investitsiyalari ishtirokidagi 47 ta korxonasi faoliyat olib borgan [2]. "Navoiyazot" OAJ hamda "DK Cosmetics" (Koreya) kompaniyasi hamkorligida tashkil etilgan "Navoi Beauty Cosmetics" QK ham faoliyat yuritib, yiliga 2,1 million dona kosmetika mahsulotlari (losonlar, kremlar, pudralar va boshqalar) va yuvish vositalari ishlab chiqargan[12].

Xorijiy investorlar qatoriga Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlarning yirik kompaniyalari kiradi. "O'zeltexsanoat" assosatsiyasi va "Shinghwa Lihting" (Koreya Respublikasi) kompaniyalari tomonidan yaratilgan "UZKOR Lihtiong" MChJ QK bugungi kunda ishlatilayotgan cho'g'lanma lampalarni energiyani tejaydigan lampalarga bosqichma-bosqich almashtirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishga o'zining katta hissasini qo'shmoqda. Qo'shma korxona yiliga 6 million dona energiyani tejaydigan gaz razryadli ixcham lampalar ishlab chiqaradi, shundan so'ng korxona to'la quvvat bilan bu raqamlarni 13,7 million donaga yetkazishi nazarda tutilgan[13]. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining "O'zprommashim-peks" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi hamda Singapurning "CFM Holding" kompaniyasi hamkorligidagi "CFM ProEnergies" ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi qo'shma korxonasida tayyorlanadigan svetodiod lampalari va yoritish uskunolari eng zamonaviy elektro-texnika mahsulotlaridan hisoblanib, nafaqat mazkur

hududda, balki MDHda ilk bor ishga tushirilgan. Bu yerda maishiy svetodiod lampalari, ko'chani yoritish chiroqlari, svetoforlar, projektorlar va svetodiod reklama panellari ishlab chiqariladi[14].

2010-yil avgust oyining oxirida "Navoiy" EIIZda elektronika, avtomobil qismlarini ishlab chiqaruvchi, polimer va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlaydigan beshta korxonaning ochilish marosimi bo'lib o'tgandi. Dastlabki beshlikka raqamli televideniya uchun yiliga 50 ming dona priyomnik ishlab chiqaradigan "Telecom Innovations" qo'shma korxonasi ham kirgan. "ZTE Singapore international Pte Ltd" kompaniyasining 653 ming 294 AQSh dollarilik sarmoyasi evaziga barpo etilgan. Ushbu korxona "O'zbektelekom" va Singapurning "Servetechno Pte.Ltd" kompaniyasi hamkorligida tashkil qilingan. Loyihaning umumiy qiymati 1,6 million dollarni tashkil qilib, raqamli televidenie uchun yiliga 50 ming dona priyomnik ishlab chiqargan[15].

Raqamli televideniya uchun qurilmalar (Set-Top Vox) yig'ish bilan shug'ullanadigan "Telekom Innoveyshns" O'zbekiston Singapur qo'shma korxonasi negizida Xitoy Xalq Respublikasining "ZTE" kompaniyasi hamda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi ishtirokida uch tomonlama qo'shma korxona tashkil etilgani ham ayni muddao bo'lgan. Negaki, bu hamkorlik "ADSL", "DSLAM" singari (qabul qiluvchi) telekommunikatsiya modemlari ishlab chiqariladi[16]. Respublikada dasilab Janubiy Koreyaning "Goldstar" firmasi bilan hamkorlikda Buxoro uysozlik kombinati negizida televizorlar ishlab chiqarish boshlangandi[17]. Bundan tashqari, Xitoylik mutaxassislar ko'magida barpo etilgan "Navoi Human Pulp" qo'shma korxonasida yiliga 200 million donagacha bolalar tagligi va yana shuncha boshqa gigienik vositalar ishlab chiqariladi. 2011-yil hisobida 1,2 milliard so'mlik asosiy mahsulot va 600 million so'mlik turli gigienik mahsulotlar ishlab chiqarilgan. - Ular "Pannolino" va "Oriam Soft" savdo belgilari ostida ichki va tashqi bozorga chiqarilgandi[18].

"AgroFresh" korxonasi "Navoiy" EIIZsida birinchilardan bo'lib ochilgan qo'shma korxonalar sirasiga kiradi. Ushbu yangi korxona "Markazsanoateksport" FAVK va Birlashgan Arab Amirliklarining "Kefayat General Trading So" kompaniyasi hamkorligida tashkil etildi. Qo'shma korxona 3000 tonna meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash imkonini beradigan, xarorat gaz orqali boshqariladigan, Italiyaning muzlatish uskunalari bilan jihozlangan. Loyihaning umumiy qiymati 5.03 million dollarni tashkil etadi[19].

Navoiy aeroporti tubdan rekonstruksiya qilinib, unga xalqaro maqom berilgan. Kuniga 300 tonna yuk qabul qilishga mo'ljallangan terminal bunyod etilgani, ayni paytda ushbu inshootda yuz ming tonna miqdorida yuk qabul qilinadi. Xalqaro logistika markazining imkoniyatlari kengayib uning xizmatlaridan "Korean Eyr" va "Moskoviya" (Rossiya) kabi xalqaro yuk tashuvchi kompaniyalar foydalanadi[21]. Shuning dek, chet el fuqarolarining hududga kirishi,

unda bo'lishi va chiqib ketishi, ish kuchi yollashi bo'yicha soddalashtirilgan rejimining asosiy qoidalari ta'minlangan.

Xullas, 2009–2011 yillarda Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi qo'shma korxonalarning rivojlanishi sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va texnologik yangilanishni amalga oshirishga katta hissa qo'shdi. Navoiyda “NGMK”, “NVO” va “Navoiyazot” kabi yirik korxonalar iqtisodiyotning lokomotiviga aylandi. Buxoroda neft-gaz klasterining rivojlanishi va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishga o'tish jarayoni amalga oshdi. Samarqandda esa to'qimachilik, oziq-ovqat va mashinasozlik sohalarida xalqaro hamkorlik orqali yangi korxonalar tashkil etildi. Umuman, bu yillar davomida amalga oshirilgan investitsion loyihalar va imtiyozli iqtisodiy sharoitlar ushbu viloyatlarni respublikaning sanoatlashgan yetakchi hududlaridan biriga aylantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хамдам Эшонкулов. Zamonaviy texnologiya iqtisodiy taraqqiyot omili. // Халқ сўзи. 2011-йил 4-июл, №-110. б.-1.
2. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro'yxat, 969-yig'ma jild, 104-varaq.
3. Истам Иброҳимов. Sahro baғridagi mo'jiza. // Халқ сўзи. 2011-йил 12-май, №-93. б.-1.; Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Ўзбекистон республикасини 2009-йилнинг биринчи ярмида ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари. // Халқ сўзи. 2009-йил 4-август, №-152. б.-1.
4. Абдурасул Сатторов. Инвестиция жалб қилинмоқда. // Халқ сўзи. 2009-йил 24-январ, №-19. б.-1.; Самарқанд вилоятида Олий Мажлис Қонунчилик палатаси Бюджет ва иқтисодий ислохотлар қўмитасининг сайёр йиғилиши бўлиб ўтди. // Халқ сўзи. 2009-йил 17-март, №-55. б.-1.
5. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro'yxat, 561-yig'ma jild, 69-74-varaq.; Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro'yxat, 970-yig'ma jild, 116-117-varaq.
6. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курамыш. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. –Б. 149.; Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. –Б. 6.; Ражабов Қ., Жамолова Д. Когон шаҳри тарихи (Қисқача маълумотнома), -Тошкент: “Тафаккур”, 2015. –30,48 бетлар.; Ражабов Қ., Жамолова Д. Когон тумани тарихи (Қисқача маълумотнома), -Тошкент: “Тафаккур”, 2015. –5,48 бетлар.
7. Самарқанд viloyat ҳокимлиги жорий arxivi. 1552-fond, 1-ro'yxat, 244-yig'ma jild, 136-varaq.; <https://kun.uz/kr/16803148>

8. Эшонкулов Х. «Навоий» эркин иқтисодий зонасининг улкан имкониятлари янги корхоналар ҳисобига тобора кенгаймоқда. // Халқ сўзи. 2011-йил 13-сентябр, №-177 (5344) б.1-2.; Раҳмонов С., Эшонкулов Х. Бекиёс яратувчанлик ва тараққиёт замини. // Халқ сўзи. 2011-йил 15-сентябр, №-179 (5346) б.1-2.

9. Ёркул Умар. Саҳрода яратилган мўжизалар. // Халқ сўзи. 2008-йил 20-декабр, №-246 (4656). Б.-1.; Абдурашид Алтиев, Ўзбекистон Республикаси олий мажлиси сенатининг бюджет ва иқтисодий ислохотлар масалалари қўмитаси аъзоси. Эркин иқтисодий зона фаолиятининг ҳуқуқий кафолати. // халқ сўзи. 2009-йил 18-август, №-162. Б.-1-2.; 1995-йил 25-апрелда қабул қилинган “Эркин иқтисодий зоналар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни моддаларида ўз аксини топган.

10. Зарипов А. Интилиш. // Халқ сўзи. 2013-йил 1-сентябр, №-172. б.-3.

11. Зарипов А. Инвестициявий жозибадорлик. // Халқсўзи. 2013-йил 13-май, №-105. б.-1-2.

12. Асатуллаев Х., Турсунов Б., Маманазаров А. Корхоналарни ривожлантириш стратегияси. – Т.: 2019, б-126-127.; Эшонкулов Х. Ҳам Инвестиция, ҳам экспорт. // Халқ сўзи. 2011-йил 21-июл, №-120. б.-1.

13. Асатуллаев Х., Турсунов Б., Маманазаров А. Корхоналарни ривожлантириш стратегияси. – Т.: 2019, б-126-127.; Эшонкулов Х. «Навоий» эркин иқтисодий зонасининг улкан имкониятлари янги корхоналар ҳисобига тобора кенгаймоқда. // Халқ сўзи. 2011-йил 13-сентябр, №-177 (5344) б.1-2.

14. Эшонкулов Х. “Навоий” эркин иқтисодий зонасининг улкан имкониятлари янги корхоналар ҳисобига тобора кенгаймоқда. // Халқ сўзи. 2011-йил 13-сентябр, №-177 (5344) б.1-2.

15. Асатуллаев Х., Турсунов Б., Маманазаров А. Корхоналарни ривожлантириш стратегияси. – Т.: 2019, б-124.;Зарипов А. Ислоҳот. // Халқ со‘зи. 2012-йил 25-январ, №-17 (5437). б.-2.

16. Азамат Зарипов. Инвестициявий жозибадорлик. // Халқсўзи. 2013-йил 13-май, №-105. б.-1-2.

17. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. –Т.: “Фан”, 1997 йил, –Б. 11.; Бухоро шарқ дурдонаси. –Тошкент: “Шарқ”, 1997-йил –Б. 166.

18. Ҳамдам Эшонкулов. «Навоий» эркин иқтисодий зонасининг улкан имкониятлари янги корхоналар ҳисобига тобора кенгаймоқда. // Халқ сўзи. 2011-йил 13-сентябр, №-177 (5344) б.1-2.

19. Ўзбекистон Ахборот Агентлиги. «Навоий» эркин индустриал-иқтисодий зонаси ҳудудида дастлабки беш корхона иш бошлади. // Халқ сўзи. 2010-йил 7-сентябр, №-174. б.-1.; Ёрқул Умар. Саҳрода яратилган мўжизалар. // Халқ сўзи. 2008-йил 20-декабр, №-246 (4656). Б.-1.

20. Абдурашид Алтиев, Ўзбекистон Республикаси олий мажлиси сенатининг бюджет ва иқтисодий ислохотлар масалалари қўмитаси аъзоси. Эркин иқтисодий зона фаолиятининг ҳуқуқий кафолати. // Халқ сўзи. 2009-йил 18-август, №-162. Б.-1-2.

21. Асатуллаев Х., Турсунов Б., Маманазаров А. Корхоналарни ривожлантириш стратегияси. – Т.: 2019, -Б.115.

22. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.